

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR DAVRIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH: INNOVATSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
101-guruh talabasi

Ergasheva Malika Shuhrat qizi
tel: 91 810 15 00

Annontatsiya:

Mazkur maqolada global transformatsiyalar davrida maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda pedagogning innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorlik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, rivojlantiruvchi ta'lim, kreativ pedagog, maktabgacha ta'lim tizimi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy - ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan maqsad - barkamol insonni voyaga yetkazish , yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta'limning keyingi bo'g'inlari salohiyatini mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim - tarbiya berishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi. Pedagog o'yin texnologiyalardan foydalanib mashg'ulot o'tkazganida bolalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi va faolligi oshadi. Zamonaviy ta'limga xos muhim sifatlardan biri pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi

Shuning uchun maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan . Pedagog mashg'ulotni samarali o'tazish uchun yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanadi bu esa pedagogning kreativligiga va tirishqoqligiga bog'liq.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq ko'rgazmali qurollar orqali anglash davrida bo'ladi. Shuning uchun pedagog yangi bilim berayotganda ko'rgazmalilikka va turli xil texnologiyalardan foydalanishga harakat qiladi.

Zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagoglar ta'lim jarayoniga yangi innovatsiyalar kiritish orqali ta'lim sifatiga o'zgartirishlar kiritadi, natijada bolalarning mashg'ulot davomida yangi bilimlarni tushunib olishi va eslab qolishi osonlashadi. Ilg'or pedagogik tajriba shunchaki mehnatning bir ko'rinishi emas, balki kezi kelganda pedagogning uslubiga aylanib, u orqali o'qituvchi tarbiya va ta'lim jarayonida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Ta'lim innovatsiyalari deyilganda ko'z oldimizga albatta yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi. Pedagog ta'lim jarayonini innovatsiyalashda texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Innovatsiya yangilik kiritish bo'lsa, texnologiya - mahorat, san'at sifatida gavdalanib, innovatsion texnologiyalar yuzaga keladi. Demak, tarbiyachining innovatsion faoliyati, bu uning pedagogik mahorati belgisidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yetakchi faoliyat turi mashg'ulot hisoblanadi. Bolalarni mashg'ulotga qiziqtirish uchun turli xil enterfaol metodlardan, multimedia texnologiyalaridan va boshqa innovatsiyalardan foydalaniladi. Bu esa tarbiyachining kreativligiga bog'liq.

Pedagoglarni innovatsion ta'limga kirib borishlarida eng maqbul o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va dastur sifatida joriy etish pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kungacha eng ustuvor o'yinlar mazmuniga asoslanib, ularni takomillahtirib borish va ta'lim - tarbiyaviy xarakterdagi talablarga moslashgan innovatsion o'yinlar texnologiyasi tuzilib qo'llanma sifatida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etishi lozim. Ana shunda barcha mutaxassislar bolalar bilan faoliyat olib borish jarayonida qiyinchilikka uchramaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy - axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirmoqda.

Xulosa o'rnida yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqidagi fikrlarini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining asosiy jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodir A., Begmatova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. - Qarshi . "Nasaf". 2011-y
2. Boltayeva F. A., Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashtirish sabablari va omillari " Fan , ta'lim va amaliyot integratsiyasi " FTAI , jild:03, nashr:06. 2022-y
3. Boltayeva F.A., Ibrohimova N.N. Maktabgacha ta'limda integral darslar - innovatsion loyiha sifatida , "Science and Innovatsion " , Interfaol sientific journal. 2022-y.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES